

Erkin Vohidov she'riyatidagi lingvomadaniy birliklar xususida

BuxDPI 1-kurs magistranti:

S.Q.Davlatova

Annotatsiya: Erkin Vohidovning she'riy merosi o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tafakkuri, ruhiy olami, diniy va ma'naviy qadriyatlarini badiiy ifoda etishda katta mahorat ko'rsatgani ayondir. Ushbu maqolada Erkin Vohidovning she'riy merosida lingvokulturologik birliklarning tahlili, ularning tildagi va madaniyatdagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, lingvomadaniy birliklar ba'zi guruhlariga ajratilib, shoir she'rlaridan keltirilgan misollar asosida izohlanadi. Shoirning lingvopoetik birliklarni qo'llash mahorati xususida ham fikr-mulohazalar mavjud.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, lingvomadaniy birlik, toponim, gastronomik birlik, milliy qadriyat, milliy realiya, ibora, toponim, lingvopoetik birlik.

Kirish. O'zbek she'riyati tarixida o'ziga xos badiiy-estetik maktab yaratgan ijodkorlardan biri — Erkin Vohidovdir. Uning she'riyati milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, lingvokulturologik birliklar – ya'ni tilda ifodalangan madaniy mazmunlar orqali shoir o'z xalqining an'anaviy dunyoqarashi, qadriyatlari va mentalitetini yuksak badiiy shaklda aks ettira olgan. Ushbu maqolada Erkin Vohidovning she'riy merosida lingvokulturologik birliklarning tahlili, ularning tildagi va madaniyatdagi o'rni o'rganiladi.

Asosiy qism. Tadqiqotda lingvokulturologiya va sotsiolingvistika metodlari asosida, matn tahlili, kontekstual tahlil va semantik-interpretativ yondashuvlar qo'llanildi. Erkin Vohidovning she'riy to'plamlari, xususan “Tong nafasi”, “Orzuli dunyo”, “O'zbekim”, “Mening yulduzim” kabi asarlari tahlil obyekti sifatida tanlandi. Lingvokulturologik birliklar milliy realiyalar, diniy-madaniy timsollar, xalqona idiomalar, qadriyat ifodalovchi so'z va iboralar shaklida ajratib olindi. Tahlil natijalariga ko'ra, Erkin Vohidov she'riyatida quyidagi lingvokulturologik birliklar ko'plab uchraydi:

Milliy qadriyatlar va timsollar: “ezgulik”, “halollik”, “sabr”, “duo”, “taqvo” kabi birliklar xalqning ma'naviy-ma'rifiy olamidani o'rin olgan.

Yo'q mo'tabar emas ona yer,

Qutlug'emas tuproq hech qachon.

Muborakdir inson to'kkan ter,

Mo'tabardir qutlug' toza qon.[3-20b]

Shoir ushbu misralar orqali, milliy timsollar bo'lmish mehnatsevarlik, halollik va ajdodlarga sadoqat tuyg'ularini aks ettiradi

Mehmon juda azizdir,
Donishqishloq tomonda.

Derlar mayli biz o'lsak,
Mehmon bo'lsin omonda .[8-97b]

An'anaviy madaniyatga oid birliklar: "do'ppi", "so'zana", "non", "mehmon" kabi birliklar xalq turmush tarzining til orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

"Bir bozor qurmoq kerakim" g'azalidan:

Tol tagi choyxonayu-
Choyxona dasturxonida.

Bobur orzu aylagan,
Qovun va shirmoy non bo'lur,

Ne bo'lur peshtaxtalarda ,
Shohi atlas beqasam,
Chust **pichoq** bergay Buxoro-
Atlasu turkman gilam.[8-65b]

"Matmusaning tandiri" she'ridan

O'zi **tandir** qurolmay,
Ko'nib oxir taqdirga .
Matmusavoy yo'l oldi,
Bozor tomon **tandirga**. [8-115]

"O'g'ri" she'ridan:

Taxlangan **ko'rpalarni** ,
Bir bir ota boshladi.
Bisot **sandiqni** ochib,
Bir-bir tita boshladi.
Sho'rlikning xabari yo'q,
Qarab turgan kishidan.
Men kuzatib turibman,
Govrapesh tirqishidan.
Qulay fursat kelishin,
Mo'ljallayman uzoqdan.
Asta-sekin qo'limni,

Bo'shataman qo'lbordan.

Sandiqni titib bo'lib,
Kelgach **bashik** qoshiga.
Sumak bilan tushirdim,
O'g'rining qoq boshiga.[3-11b]

Paxtakorlarga tabrik she'ridan;
Bukun dalalardan chanoqlab **dehqon**,
Terib olar ekan rizq-u ro'zini.
Tog'day yelkasidan keng yarim jahon,
Uning **paxtasiga** tikmish ko'zini.
El borki ufqning har to'rt yog'ida,
Egni butun bo'ldi shu millionlardan.

Oq yaktak matosin ko'rgan chog'ida,
G'arb ham kechib qo'ydi oq neylonlardan.[3-54b]

Milliy oziq-ovqat mahsulotlari (gastronomik birliklar)ga oid birliklar

Kun tog' o'rkachiga tirmashar asta,
Novvot qoyalarda yaltiraydi qor[8-34b]

Shoir ko'klam tasvirini metafora orqali shunday mahorat bilan tasvirlaydiki,tog' qoyalaridayaltirab turgan qorlarni novvotga o'xshatadi. Ijodkorda bunday tasvirlar talaygina va bu tasvirlarga milliy madaniy birliklarimiz mahorat bilan singdirilgan

“Olimlarning rafiqalariga” she'ri

Kimyogar yangi bir zarra kashf etsa,

Bu ijod boisi bo'lgan hoynahoy.

Stolning chetiga siz qo'yib ketgan,

Bir **chaqmoq qand** bilan bir **piyola choy**.[8-23b]

Shuni qayd etib o'tish lozimki,Erkin Vohidov she'riyatida lingvokulturologik birliklar asosan toponimlar (joy nomlari), metonimiyalar va boshqa lingvopoetik vositalar orqali ifodalanadi. U she'rlarida milliy ruhiyatni, tarixiy va madaniy jihatlarni aks ettirishda toponimlardan faol foydalanadi. Masalan, "O'zbekim" qasidasida Afg'on va Hind toponimlari tarixiy kontekstda qo'llanib, milliy madaniyat va tarixiy faktlarga ishora qiladi. Toponimlar orqali shoir o'zbek xalqining milliy tafakkuri, psixologiyasi va urf-odatlarini yoritadi.

Shuningdek, Vohidov ijodida metonimiyalar muhim rol o'ynaydi. Ular milliy kuy, madaniy obrazlar va badiiy ifodalarni boyitishda qo'llaniladi. Masalan, "O'zbek

Navoiyni o‘qimay qo‘ysa" she'rida metonimik ifodalar orqali milliy ma'naviyat va tarixiy shaxslar obrazlari jonlanadi.

Bu lingvokulturologik birliklar Vohidov she'riyatida milliylik, samimiyluk va vatanga muhabbat tuyg'ularini kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari,shoir she'riyatida lingvopoetik vositalar ham keng va mahorat bilan qo'llaniladi. U asosan metafora, metonimiya, antonim, omonimlar kabi lingvopoetik birliklardan foydalanib, she'rlarining obrazliligi va ta'sirchanligini oshiradi. Shoirning til ishlatish uslubi soddalik va xalqchilikka asoslangan bo'lib, ohangdor, ravon so'z va iboralar yordamida milliy ruhiyatni ifodalashga xizmat qiladi.

Qayd etish lozimki, Erkin Vohidov she'riyatida badiiy takrorlar (reduplikatsiyalar) muhim o'rin tutadi, ular she'ning ritmik va fonetik ohangdorligini ta'minlab, emotsional-ekspressivlikni kuchaytiradi. Omonimlardan mahorat bilan foydalanish orqali esa shoir bir so'zning turli ma'nolarini birlashtirib, milliy qadriyatlar va ona tiliga muhabbatni ifodalaydi.

Xulosa.Erkin Vohidovning she'riyatida lingvokulturologik birliklar orqali til va madaniyatning mushtarakligi namoyon bo'ladi. Bu birliklar faqatgina til hodisasi bo'lib qolmay, balki xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari, dunyoqarashi va madaniy yodgorliklarining og'zaki va yozma shakldagi aksidir. Shoir xalq ruhiyatini, hayot falsafasini tilda mujassam holatda ifodalaydi. Shu jihatdan, Erkin Vohidov poetikasini o'rganish lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim manbadir. Erkin Vohidovning she'riy merosi lingvomadaniy birliklar nuqtayi nazaridan o'rganilganda, u o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tafakkuri, ruhiy olami, diniy va ma'naviy qadriyatlarini badiiy ifoda etishda katta mahorat ko'rsatgani ayon bo'ladi. Shoir o'z she'rlari orqali milliy o'zlikni asrab-avaylash, til va madaniyatni uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.Uning she'riyati orqali xalq ruhiyatini, milliy xotirani, madaniy qadriyatlarni o'rganish mumkin. Shu bois, shoir ijodini lingvomadaniy tahlil etish nafaqat badiiy-estetik, balki ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. 1–2-jildlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
2. Quronov D. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
- 3.Vohidov E.Orzuli dunyo.-Toshkent-Sharq-2010
4. Abduazizov A. Til – madaniyat ko'zgusi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

5. Saidov A. Lingvokulturologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari. // Filologiya masalalari. – 2015, №2.
6. Bozorov M. O‘zbek poeziyasi tili va uslubi. – Toshkent: Fan, 1998.
7. Qodirov M. Lingvopoetik tadqiqotlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
8. Vohidov E. Mening yulduzim.-Toshkent-2018